

RASPUTINNING “FRANSUZ TILI SABOQLARI”, ASARI – INSONIY G’OYALAR TALQINI

Andijon davlat chet tillari insituti
Muydinjonova Dilorom
Ilmiy maslahatchi: Xomidova Malohat

Annotatsiya: Fransuz tili saboqlari asarida qishloqdan shaharga o‘qish uchun kelgan kambag‘al bola hayoti tasvirlanadi. U bilim olishga intilsa-da, ochlik, yolg‘izlik va moddiy qiyinchiliklar sabab murakkab hayot kechiradi. Shu sharoitda u pul topish uchun qimor o‘yinlariga aralashib, ichki kurashni boshdan kechiradi. Asarda ehtiyoj va halollik o‘rtasidagi ziddiyat yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mehr-shafqat, insoniylik, halollik, vijdon, qiyinchilik, ochlik, sabr, matonat, o‘qituvchi, tarbiya, g‘amxo‘rlik, adolatsizlik, tizim, yolg‘izlik, kambag‘allik.

Abstract: In Fransuz tili saboqlari, the life of a poor boy who comes from a village to the city for education is depicted. Despite his desire to learn, he faces hunger, loneliness, and financial hardship. In an attempt to earn money, he becomes involved in gambling, which leads to an inner conflict between necessity and honesty.

Key words: Mercy, humanity, honesty, conscience, difficulty, hunger, patience, resilience, teacher, upbringing, care, injustice, system, loneliness, poverty.

Аннотация: В произведении Fransuz tili saboqlari изображена жизнь бедного мальчика, приехавшего из деревни в город учиться. Несмотря на стремление к знаниям, он сталкивается с голодом, одиночеством и материальными трудностями. В поисках денег он вовлекается в азартные игры, что приводит к внутреннему конфликту между необходимостью и честностью.

Ключевые слова: Милосердие, человечность, честность, совесть, трудности, голод, терпение, стойкость, учитель, воспитание, забота, несправедливость, система, одиночество, бедность.

Valentin Rasputin tomonidan yaratilgan Fransuz tili saboqlari asari XX asr rus adabiyotining eng ta’sirli va tarbiyaviy ahamiyatga ega hikoyalaridan biridir. Ushbu asar urushdan keyingi og‘ir hayot sharoitida yashagan insonlarning ruhiyati, ayniqsa bolalar taqdiri orqali insoniylik, mehr-shafqat va halollik kabi muhim qadriyatlarni ochib beradi.

Asarning eng yorqin obrazlaridan biri — fransuz tili o‘qituvchisi. U oddiy pedagogdan ko‘ra ko‘proq insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan shaxs sifatida tasvirlanadi. O‘qituvchi bolaning ahvolini tushunib, unga yashirincha yordam beradi: oziq-ovqat bilan ta’minlaydi, pul beradi, hatto uning qadr-qimmatini saqlash uchun

yordamni o'yin orqali "yutqazish" shaklida amalga oshiradi. Bu esa uning nafaqat mehribon, balki nozik psixolog ekanligini ham ko'rsatadi.

"U menga go'yo men haqimda hamma narsani biladigandek qarardi".-Bu o'sha bolakayning fransuz tili o'qituvchisi haqidagi fikrlari u o'zining kichik qalbi bilan barcha narsani his qilardi

Biroq, jamiyatdagi qat'iy qoidalar va sovuqqon tizim bu insoniy harakatni qadrlamaydi. O'qituvchi qoidalarni buzganlikda ayblanib, jazolanadi. Shu orqali asarda adolatsizlik va rasmiyatchilik insoniylikdan ustun qo'yilgan muhit tanqid qilinadi.

Asarning asosiy g'oyasi — insoniylik har qanday vaziyatda eng oliy qadriyat bo'lib qolishi kerakligidir. Rasputin bu hikoya orqali shuni ko'rsatadiki, haqiqiy yaxshilik ko'pincha qiyinchilik va qurbonlik talab qiladi. O'qituvchining qilgan ishi tashqi tomondan qoidabuzarlik bo'lib ko'rinsa-da, aslida u insoniylikning eng yuksak namunasi.

Shuningdek, asarda bolalik davrining qiyinchiliklari inson xarakterini shakllantirishi, insonni chiniqtirishi g'oyasi ham ilgari suriladi. Bosh qahramon boshidan kechirgan sinovlar orqali hayotni, odamlarni va o'zini anglay boshlaydi. Bu esa uni ma'naviy jihatdan ulg'aytiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Fransuz tili saboqlari" oddiy voqealar tasviri emas, balki chuqur ma'noga ega bo'lgan, inson qalbiga ta'sir etuvchi asardir. Unda mehr, halollik, sabr va insoniylik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Asar o'quvchini nafaqat o'ylashga, balki atrofdagilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lishga undaydi.

"Men pulga o'yin uchun emas, non topish uchun o'ynardim", "Menga juda uyat edi, lekin baribir o'ynashda davom etdim", "Men yarim och holda yashardim, lekin o'qishni tashlamadim", -Bu so'zlar shuni anglatadiki kichik bo'lishiga qaramasdan inson bo'lib shakllangan, qalbida g'urur, nomus, qat'iyat kabi kuchli his tuyg'ular shakllanganligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat shunday vaziyatda unga tayanch bo'lib kelgan g'o'yo farishta timsolidagi muallim unga yordam berdi. Va yana shuni unutmashimiz kerakki "Haqiqiy insoniylik va mehr inson qalbida abadiy qoladi."

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fransuz tili saboqlari, Valentin Rasputin
2. Rasputin V. G. Рассказы и повести (to'plam asarlar)
3. Rus adabiyoti darsliklari (XX asr adabiyoti bo'limi)
4. Adabiyotshunoslik manbalari: insoniylik va axloqiy g'oyalar tahlili